

# Jasorat maktabi



Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda armiya bilan birgalikda harbiy-ma'muriy sektorlar ham oldingi qatorlarda bo'lishi va bu borada harbiy okruglar bilan hamkorlikda yosh vatanparvarlar yig'inini izchil davom ettirish vazifasini belgilab bergan edi.

Ushbu vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida Surxondaryo viloyati hokimligi hamda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'mondonligi bilan hamkorlikda "Termiz" umumqo'shin dala poligonida joylashgan harbiy qismda surxondaryolik 100 nafar yoshlar uchun "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini o'tkazildi.

O'n kun davom etgan yig'inda 100 nafar yoshlar guruhlarga ajratilib, ular 6 ta yo'nalish bo'yicha kasb-hunar o'rgatildi, jangovar, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik, IT-texnologiyalari va tadbirkorlik yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlarga jalb qilindi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maqsadida turli sport musobaqalari tashkil etildi.

Ushbu mavsumning tantanali yopilish marosimida yig'inda faol ishtirok etgan yoshlarga tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.